

ERKIN VOHIDOV SHE'RIYATIDA VATAN-TABIAT, VATAN-ISTIQLOL BIRLIGI TALQINI

Annotatsiya. Maqolada Erkin Vohidovning nafaqat maxsus asarlari, balki boshqa shunga yondosh mavzudagi she'rlarida ham Vatan obrazi tahlillari ochib berilgan. Shoir she'riyatida vatan-tabiat, vatan-istiqlol birligi talqini "Navro'z nashidasi", "Turkiston bir, vatan bir" kabi she'rlaridagi misralar tahlilida Vatan lirikasi mazmun ko'lamining kengligi, ohangdorligi, ohorli tashbehu istioralarga boyligi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Vatan, Navro'z, peyzaj, itimoiy mazmun, ramz, talmeh, she'riyat.

ТОЛКОВАНИЕ ЕДИНСТВА РОДИНА-ПРИРОДА И РОДИНА-НЕЗАВИСИМОСТЬ В ПОЭЗИИ ЭРКИНА ВАХИДОВА

Аннотация. В статье рассматривается образ Родины не только в произведениях Эркина Вахидова, специально посвящённых данной теме, но и в его стихотворениях, затрагивающих смежные вопросы. На основе анализа строк из таких стихотворений, как «Навруз нашидаси» и «Туркистон бир, ватан бир», раскрывается единство понятий Родина и природа, а также Родина и независимость в поэтическом мироощущении автора. В статье подчёркивается широкая тематическая направленность патриотической лирики Вахидова, её музыкальность и богатство художественно-выразительных средств, таких как метафоры и сравнения.

Ключевые слова: Родина, Навруз, пейзаж, социальное содержание, символ, талмуд, поэзия.

INTERPRETATION OF THE UNITY OF HOMELAND-NATURE AND HOMELAND-INDEPENDENCE IN ERKIN VOHIDOV'S POETRY

Annotation. The article explores the image of the Homeland not only in Erkin Vohidov's works specifically devoted to this theme but also in his poems addressing related topics. Through the analysis of verses from poems such as "Navro'z nashidasi" and "Turkiston bir, vatan bir", the study reveals the unity of the concepts of homeland and nature, as well as homeland and independence, in the poet's worldview. The article highlights the broad thematic scope of patriotic lyrics in Vohidov's poetry, its musicality, and the richness of artistic devices such as metaphors and similes.

Keywords: Homeland, Navruz, landscape, social content, symbol, allusion, poetry.

Erkin Vohidovning Vatan haqidagi she'rlari XX asr adabiyotining o'ziga xos sahifasini tashkil etadi. Shoirning nafaqat maxsus asarlari, balki boshqa shunga yondosh mavzudagi she'rlarida ham Vatan obrazi yaratilganligini kuzatish mumkin. Bu jihatdan shoirning "Navro'z nashidasi" she'ri etiborni tortadi:

Yurtim!
Ilhomimga sarchashma o'zing,
Birdek aziz menga yozing ham kuzing.
Bukun bahoringga she'r aytmoqchiman,
Vatanim, muborak bo'lsin navro'zing.

Navro'z – xalqimizning ko'p asrlarga bo'ylashgan milliy bayrami. U ona yurtini "ilhomimga sarchashma" deya ta'rif etar ekan, bunda ham Vatan bo'lgan qaynoq mehr tuyg'ulari

84 aks etadi. Qolaversa, shoir uni bahori, yozi, kuzi bilan, uning betakror tabiati bilan sevadi. Bahor boshlab kelgan Navro'z bilan lirik qahramon Vatanni qutlaydi.

Yana olam bo'ldi yashil, serfusun,
Yana qizg'aldoqlar ochildi gulgun.
Bu yilgi ko'klamning o'zgacha butun,
Vatanim, muborak bo'lsin Navro'zing.

Yuqoridagi satrlarda Vatan tabiati, uning go'zal manzarasi ifoda etilgan. Olamning yashil bo'lishi, qizg'aldoqlarning gulgun ochilishi tasvirlarida kuzatish mumkin.

Qattiq qishdan chiqding zax tortib, xorib,
Yerdan chiqqan kabi boychechak yorib.
Bag'ringdan muz ketdi xamalga borib,
Vatanim, muborak bo'lsin Navro'zing.

"Qattiq yerdan qatalab chiqqan boychechak" degan satr bor xalq qo'shig'ida. Bu she'rda ham xalq qo'shig'ining shu satri mazmunan singdirilgan – folklorizm bo'lib, milliy hayot manzaralarini ifoda etadi. Ya'ni tuproqni yorib, boychechakning yuz ko'rsatishi – yurt bahori kelganiga ishoradir. Bu gul hamalni boshlab keladi. "Bag'ringdan muz ketdi xamalga borib" misrasida muz qishning ramzi bo'lib kelgan. Ya'ni qishning tugab, ko'klamning tashrif buyurishini shoir shu tarzda obrazlantirgan.

Qir yashil, bog' yashil, bo'standir yashil,
Bahoriy libosda jahondir yashil,
Erk yashil, istiqloq, imondir yashil,
Vatanim, muborak bo'lsin Navro'zing.

"Yashil" rang yangilanish, yasharish ramzi. Vatanning yashillikka burkanishi tasviri peyzaj bo'lsa, keyingi satrlar ijtimoiy mazmun kasb etgan. Demak, erk, istiqloq, imonning yashillanganligi – yurt ma'naviy-ruhiy hayotidagi o'zgarishlarni, ko'p asrlik diniy-ma'rifiy qadriyatlarining, "yuziga sho'r paxta" bosilgan Navro'zning tiklanishi voqealari aks etgan.

Boshingda hurriyat quyoshing bordir,
O'z Tug'ro, Bayrog'ing, Yurtboshing bordir.
Maqsading, g'ayrating, bardoshing bordir,
Vatanim, muborak bo'lsin Navro'zing.

Bu misralar Vatan istiqloqligiga shukronalik ruhi bilan sug'orilgan. "Hurriyat quyoshi" – mustaqillik ramzi. Darhaqiqat, o'z tug'rosi, bayrog'i, yurtboshisi bo'lgan yurtga Navro'zday bayramlar yarashadi. Shu jihatdan banddagi ijtimoiy mazmunni anglash va tushunish mumkin bo'ladi.

Yosh chinorsan, o'zni tutib olarsan,
«Ilik uzildi»dan o'tib olarsan.
Yuzlab bahorlarni kutib olarsan,
Vatanim, muborak bo'lsin Navro'zing.

Istiqloqligiga qadam qo'ygan Vatan yosh chinorga o'xshatilgan. "Ilik uzildi" insonning qishdan bahorga o'tishini bildiradi. Shu jihatdan bu ibora ko'chma ma'noda O'zbekistonning sobiq tuzumdan mustaqillikka o'tishini ifoda etadi. Keyingi misralar istak-tilak xarakteriga ega: shoir yurtning istiqloqligini yuzlab bahorlarini kutib olishiga katta umid qiladi.

Bugun dalalarga qadalgan urug'
Inshoolloh, rizqu barakot to'lug',
Ey, umid o'lkasi, ertasi ulug' –
Vatanim, muborak bo'lsin Navro'zing.(132-bet)

Bu band xulosaviy mazmunga ega. Ijtimoiy ma'noning kuchayib borganligi "dalalarga qadalgan urug'", "rizqu barakot to'lug'" tasvirlarida ko'rinadi. Bunda shoir istiqloqdan masrur, shod bo'lgan o'lkani "umid o'lkasi" deya tashbehlaydi. She'r Erkin Vohidovning Navro'zning yurtga qaytganidan xursandligini aks ettiradi. Unda Vatan-tabiati-istiqloq mavzularining uyg'unlashib ketganligi, yurt tabiati manzaralari tasviri fonida ijtimoiy mazmunning ham ifoda etilganligi yorqin kuzatiladi.

Erkin Vohidovning "Turkiston bir, vatan bir" she'ri 1992-yilda yozilgan. Bu she'r ham Vatan tarixidan g'ururlanish, faxrlanish ruhida bitilgan:

Qadim ona bu tuproq
 Turkiston bir, vatan bir.
 Bizga jondan azizroq
 Turkiston bir, vatan bir.
 Al-Beruniy yodi bor,
 Yassaviy faryodi bor,
 Qoshg'ariy ijodi bor,
 Turkiston bir, vatan bir.

Ma'lumki, Turkiston birligi g'oyasi Rauf Parfi she'rlaridan asosiy chiziq bo'lib o'tadi. Yuqoridagi she'r ham shunga hamohang jaranglaydi. Shoir Vatan tarixining qadim sahifalariga nazar tashlar ekan, bu tuyg'u tarix qadar cheksiz ekanligini, shu ona tuproqda Al-Beruniy, Yassaviy, Qoshg'ariylar yashab o'tganligini talmeh vositasida ochib beradi.

Tangritog' – shamoili,
 Jayhun, Talas va Ili –
 Bobolarim manzili –
 Turkiston bir, vatan bir.

Bunda Turkistonning geografiyasi kengligi ifoda etilgan. Tangritog', Jayhun (Amudaryo), Talas va Ili daryolari bilan o'ralgan bepoyon yurt timsolida shoir Turkistonni ko'radi.

Forobiy cholg'usida,
 Navoiy orzusida,
 Shoh Bobur qayg'usida
 Turkiston bir, vatan bir.

Bu satrlar ham talmeh bilan ziynatlangan. Shoir "Forobiy cholg'usi" deyish orqali sharq mutafakkirining musiqiy faoliyati, uning "Musiqi haqida katta kitob" asarini nazarda tutadi. Chunki Forobiy fikr yuritgan "ud" cholg'u asbobi ohanglarida Turkisto yashaydi. Yoxud buyuk Navoiy shunday dorilomon kunlar, dorilomon yurni orzu qilgan. "Shoh Bobur qayg'usi" ifodasi ham bekorga emas. Chunki Bobur yurtdan ketib, ulug' saltanat bunyod etgan bo'lsa-da, bir umr ona yurtiga intilib, sog'inib yashadi. Demak, shoir Vatanimiz tarixida siymolari nurlanib turgan Forobiy, Navoiy, Bobur kabilarni talmeh qilib keltirar ekan, Vatanning kechasi – o'tmishi ham nurli ekanligini ta'kidlamoqchi bo'ladi.

Temur bobo tug'ida,
 Shermuhammad ruhida,
 Istiqlol shukuhida
 Turkiston bir, vatan bir.

"Yarim asr ikki dunyoni zir titratgan mag'rur dovongir" Amir Temurning tug'ida – qilichida, vatansevar Shermuhammad Munis ruhida Turkiston – Vatan yashaydi. Talmeh shunday fikrni ifodalashga xizmat qilgan.

Tojik – yuksak Pomirim,
 Turkman – tutash tomirim,
 Qirg'iz, qozoq – bovrurim –
 Turkiston bir, vatan bir.

O'zbek she'riyatida turkiy birlik g'oyasi Rauf Parfi ijodida asosiy chiziq bo'lib o'tadi. Erkin Vohidov ham vatan haqiyda yozar ekan, ayna shu g'oyani ilgari suradi. Tojik, turkman, qirg'iz, qozoq xalqlari turkiylar sanaladi. Shu bois ham dastlabki satrda shoir ham tahmeh, ham tashbeh qo'llagan. Ya'ni tojik xalqi yuksak Pomir tog'iga qiyoslangan, shu tog' nomiga ishora qilingan. Tutash tomir, bovrur so'zlari ham turkiy qavmga mansub yeri, dini bir turkman, qirg'iz, qozoqlarga ishora etadi.

Mustafo Cho'qay joni,
 Cho'lponning shahid qoni,
 Qodiriyning armoni –
 Turkiston bir, vatan bir.

Yuqoridagi satrlar ham deyarli talmeh bilan ziynatlangan. Mustafo Cho'qay turkiy xalqlar mustaqilligi uchun kurashgan vatanparvar. Cho'lpon va Qodiriy yurt istiqloli, erki, ozodligi

yo'lida shahida bo'lgan xalqimizning asl farzandlari. Shoir shular siymosida Turkiston birligini, vatan yagonaligini ko'radi.

Ona yerga quloq tut,
Nidolar bo'lmas unut.
Ruhlar aytar: ona yurt
Turkiston bir, vatan bir.(133-bet)

Shoir bunda Vatanning ko'hna tarixiga nazar soladi. Ona yer – Ona vatanni ifoda etadi. Ona yerga quloq tutish – uning ozodligi, erki yo'lida olib borilgan kurashlarni nazarda tutadi. Darhaqiqat, ona yer qa'ridan keladigan nidolarni unutib bo'lmaydi. Erkin Vohidovning "O'zbekiston bog'lariga qaytib keldi bulbullar" deb boshlanadigan she'ri masnaviyda yozilgan:

Mana, bukun bog'larimga qaytib keldi bulbullar,
Hur Vatanga hur qo'shiqlar aytib keldi bulbullar.
Men ham endi qalamimni she'rlar uchun charxlayin,
Bu sehrli taronani g'azallarda sharhlayin.

Bog'larga qaytgan bulbullar ramziy ma'noda ega bo'lib, yurt istiqlolining timsoli. Shu jihatdan bulbul obrazi ijtimoiy mazmun tashiydi. "Hur Vatanning hur qo'shig'i" ham istiqlolning tashrifini bildiradi. Lirik qahramon – shoir bu tashrifdan masrur: u shoirona qalamini charxlab, sehrli tarona mustaqillik kuyini g'azalga soladi. Bunda sehrli tarona istiora bo'lib, istiqlolni ifoda etadi.

Bugun sahar bulbullarning chah-chahidan uyg'ondim,
Shohimardon tog'larida bir yayradim, quvondim.
Chamanlarda sho'x sayrasin, zavqqa to'lsin bulbullar,
Qaytmas bo'lib vatanimga kelgan bo'lsin bulbullar.[135-bet]

Keyingi baytlarda ham istiqloлга shukronalik ruhi yorqinlashib borgan. Lirik qahramonni tongda bulbullarning chah-chahi uyg'otishi tasviri buni tasdiqlaydi. Ya'ni bunda istiqloldan mamnunlik ruhi shu obrazda namoyon bo'lgan. "Shohimardon tog'lari" vatan kengliklarini ifoda etadi. "Chaman" – ko'chma ma'noda Vatandir. Shoir istiqlol qo'shig'ini kuylab kelgan bulbullarning – mustaqillikning yurtida manguga qolishini istaydi. Yuqorida tahlil etganimiz she'rlar O'zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Erkin Vohidovning yurtga qaynoq muhabbatdan tug'ilgan satrlaridir. Unda vatanparvar, vatansevar lirik qahramon obrazi bo'y ko'rsatib turadi. Ulug' shoir Vatanning betakror tabiati haqida yozar ekan, uni qadimiy va bezavol Navro'z bilan bog'laydi. Yoxud u yurt istiqloli haqida kuylar ekan, uning ko'p asrlik tarixiga nazar soladi. Shu jihatdan istiqloлга erishgan Vatan yosh chinor, umid o'lkasiga, mustaqillik esa hurriyat quyoshi, bulbulga o'xshatilgan. Erkin Vohidovning Vatan-tabiati, Vatan-istiqlol juftligidagi she'rlari janriy jihatdan ham rang-barang. Ular orasida barmoq vaznidagi, qasida mazmunidagi she'rlar va masnaviy bor. Umuman olganda, shoirning Vatan lirikasi mazmun ko'lamining kengligi, ohangdorligi, ohorli tashbehu istioralarga boyligi bilan ajralib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Каримов Н., Назаров Б. ва бошқалар. XX аср ўзбек адабиёти тарихи. –Тошкент: Ўқитувчи, 1999. –Б. 200-201 б.
2. Ойбек. Мукаммал асарлар тўплами. Биринчи том. Шеърлар. – Тошкент: Фан, 1975. – Б.309.
3. Ҳамид Олимжон. Ўлка. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2000. – Б. 8.
- 4.Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Девон. – Тошкент: Фан, 1993. – Б.54.
5. Фурқат. Муҳаббат йўлида. Шеърлар. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2009. – Б. 253.
- 1.Madaev O., Sobitova T. —Xalq ogzaki poetik ijodil-Toshkent . —Sharq nashriyoti 2001.
- 2.Safarov O. "O'zbek xalq og_zaki ijodi" - Toshkent. "Musiq" nashriyoti 2010.
- 3.Ahmedov S. va boshqalar.Adabiyot. Umumiy o_rta ta'lim maktablarining 6- sinfi uchun darslik-majmua,2-qism. Toshkent. "Ma'naviyat" nashriyoti 2017.